

## XORIJIY INVESTITSIYALARNI SUG‘URTALASHNING ZAMONAVIY HOLATI VA VA UNDAGI MUAMMOLAR

**Zohidova Ruxsora**

Toshkent Moliya instituti  
“Investitsiyalarni boshqarish” magistratura  
yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

**Sobirova L.Sh.**

Ilmiy rahbar: i.f.n., dotsent

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada respublikamizda xorijiy investitsiyalarni sug‘urtalash amaliyotining bugungi kundagi holati, uning rivojlanish tendensiyalari, shuningdek, ushbu sohada ko‘zga tashlanayotgan bir qancha muammolar muammolar tog‘risida so‘z boradi. Mamlakat sug‘urta bozorining holati va undagi investitsiyalarni kompleks sug‘urta qilish bilan bog‘liq masalalarning milliy iqtisodiyotimizga kirib kelayotgan xorijiy investitsiyalar ko‘rsatkichlariga ta’siri tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** xorijiy investitsiyalar, sug‘urta, sug‘urta bozori, investitsiyalarni kompleks sug‘urtalash, investitsiya risklari, sug‘urta kompaniyalari.

## MODERN STATE OF FOREIGN INVESTMENTS INSURANCE AND ITS ISSUES

**Zohidova Ruxsora**

1st-year Master’s student,  
Master’s course of Investment  
Management, Tashkent Financial Institute

**Sobirova L.Sh.**

Scientific supervisor: candidate of economic  
sciences, associate professor

### ABSTRACT

This article talks about the modern state of the process of insurance of foreign investments in our republic, its developmental trends, as well as addressing several issues and challenges emerging in this field today. The analysis focuses on the impact of the condition of the insurance market and the complex insurance of investments on the indicators of foreign investments entering our national economy.

**Keywords:** foreign investments, insurance, insurance market, complex insurance of investments, investment risks, insurance companies.

## СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ СТРАХОВАНИЯ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ И ЕГО ПРОБЛЕМЫ

**Зохидова Рухсора**

Студент магистратуры 1-го курса,  
направление «Управление инвестициями»,  
Ташкентский финансовый институт

**Собирова Л.Ш.**

Научный руководитель: к.э.н. доцент

### АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается текущее состояние процесса страхования иностранных инвестиций в нашей республике, тенденции его развития, а также обсуждаются актуальные проблемы, возникающие в данной области. Анализ сосредотачивается на влиянии состояния рынка страхования и комплексного страхования инвестиций на показатели привлечения иностранных инвестиций в национальную экономику.

**Ключевые слова:** иностранные инвестиции, страхование, рынок страхования, комплексное страхование инвестиций, инвестиционные риски, страховые компании.

### KIRISH

Boshqa sohalardagi kabi, tadbirkorlik faoliyati davomida ham kutilmagan holatlar yuzaga kelishi sababli tadbirkordan mamlakatdagi siyosiy va iqtisodiy vaziyatning o'zgarishini oldindan ko'ra olishni, bozordagi yangiliklar va o'zgarishlarga tez moslasha olish, loyihadan keladigan foyda va zararlarni prognoz qila olish va, albatta, samarali boshqaruv qarorlarini qabul qila olishni talab qiladi. Tabiiyki, faoliyat davomida barcha kutilmagan holatlarni prognoz qilish va hisob-kitob qilish ilojisiz hisoblanadi, shuning uchun loyihadan ko'zlangan foydani ola olmaslik va zarar ko'rish riski doimo mavjud.

Xorijiy investitsiyalarni sug'urtalash mamlakat iqtisodiyotining kelgusidagi barqaror rivojlanishining zaruriy elementidir. Sug'urta vositasida investitsiyalash jarayonining uzluksizligini ta'minlashni kafolatlash maqsadida investitsiya faoliyatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan turli risklardan himoyalash amalga oshiriladi.

Jahon iqtisodiyotida sug'urta munosabatlari yordamida xorijiy investorlarning barcha boyliglarini turli risklardan himoyalash orqali ularning investitsion faolligini rag'batlantirishni ta'minlash mumkin. Bu o'z navbatida investitsiya faoliyatida yuzaga

kelishi mumkin bo'lgan risklarni oldindan aniqlash, tasniflash, tahlil qilish va ularni sifatli baholashni taqozo etadi.

Shunday ekan, sug'urta sohasi iqtisodiyotning rivojlanishida muhim tarmoqlardan biri hisoblanadi. O'zbekistonda sug'urta bozori shakllangan va endi rivojlanish bosqichiga qadam qo'yimoqda.

### **ADABIYOTLAR SHARHI**

Xorijiy mamlakatlar olimlarining, jumladan Felipe Berdou, Shauhin Talesh, Joseph E. Stiglitzlarning sug'urta va sug'urta faoliyatiga oid nazariy qarashlari boshqalardan biroz farq qiladi. Masalan, Felipe Berdou o'z izlanishlarida sug'urta munosabatlari XVI asrning oxirlarida Buyuk Britaniyada paydo bo'lganligiga e'tibor qaratadi<sup>1</sup>. Uning fikricha, sug'urta faoliyatining vujudga kelishiga Londonda 1666 yil ro'y bergan yong'in va Buyuk Britaniyaning jahon dengiz savdosidagi mavqei sabab bo'lgan. Sug'urtaning maqsadi moliyaviy yo'qotishlardan himoyalash hisoblanadi. Sug'urta faoliyati nazariyasi xususida to'xtalib, Shauhin Talesh sug'urtaning an'anaviy va ustun kontseptsiyasi ixtiyoriy shartnoma kelishuviga asoslangan bo'lib, unga ko'ra biznes tuzilmalari o'zlarining risklarini sug'urtalovchiga o'tkazadi, deb hisoblaydi<sup>2</sup>. Bizning nazarimizda, Shauhin Taleshning ushbu qarashi sug'urtaning mohiyatini keng ma'noda yoritma olmagan. Ya'ni sug'urta himoyasi, davlatga qarashli tashkilotlar va ko'p sonli aholini ham qamrab oladi.

Rossiyalik olimlar B.Yu. Serbinovskiy, N.V. Bendina, D.P. Frolov, E.V. Kolomin, I.L. Kirilyuk, A.P. Sviridov, I.P. Xominich, S.N. Tixomirov, va O'zbekistonlik tadqiqotchilar X.M. Shennaev, T.M. Baymurotov, Q.M. Qo'ldoshev, S.A. Umarov, I.X. Abduraxmanov, Sh.B. Imamov, M.A. Mirsadikov va B.R. Shamsuddinovlar tomonidan ham o'z ilmiy tadqiqotlarida sug'urta nazariyasiga oid fikrlar bildirgan.

### **TAHLIL VA NATIJALAR**

O'zbekiston mustaqilligining dastlabki yillaridayoq milliy iqtisodiyotga kapital kiritayotgan xorijiy investorlarning investitsiyalarini himoyalash nuqtai-nazaridan davlat kafolatlari taqdim qilindi va sug'urta asosida himoyalash chora-tadbirlari ko'rildi.

Bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotiga jalb qilinayotgan xorijiy investitsiyalarni sug'urtalash mexanizmi amalda mavjud bo'lib, uni yanada takomillashtirish borasida islohotlar olib borilmoqda. Xorijiy investorlar dastlab o'z sarmoyalarini siyosiy risklardan himoyalash choralari ko'radilar. Siyosiy risklar

<sup>1</sup> Felipe Berdou. Target Insurance, G06Q40/02; G06Q40/08; (IPC1-7): G06F17/60. 2004.  
<https://www.freepatentsonline.com/20040010426.pdf>.

<sup>2</sup> Shauhin A. Talesh. A New Institutional Theory of Insurance. UC Irvine Law Review, Vol.5, No.3, 2015, pp.617-650, UC Irvine School of Law Research Paper No. 2015-77. [https://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract\\_id=2651508](https://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract_id=2651508).

xorijiy investorlarning o'z mamlakatlarida tashkil etilgan davlat sug'urta agentliklari tomonidan, xalqaro xususiy sug'urta kompaniyalari va xalqaro sug'urta tashkilotlari tomonidan sug'urtalanadi. Shu jumladan, Buyuk Britaniyaning London shahrida joylashgan "O'zbekinvest-Interneshnl" kompaniyasi ham Respublikamizga jalb qilinayotgan xorijiy investitsiyalarni siyosiy risklardan sug'urtalab kelmoqda.

Har qanday davlatga kiritilayotgan xorijiy investitsiyalarni siyosiy risklardan sug'urtalashda sug'urta xizmatlari tariflari mamlakat riski ko'rsatkichi, ya'ni mamlakat investitsion jozibadorlik ko'rsatkichlari darajasi va har bir sug'urtalanadigan risklar darajasi bilan belgilanadi. Milliy sug'urta kompaniyalarining kapitallashuv darajasining pastligi va sug'urta bozorida faqatgina to'rt nafar sug'urta kompaniyasining ("O'zbekinvest" AJ, "O'zagrosug'urta" AJ, "Kafolat sug'urta kompaniyasi", AJ, "Temiryo'l-sug'urta" AJ) xalqaro reyting ko'rsatkichlariga egaligi, milliy sug'urta kompaniyalari moliyaviy imkoniyatlarini cheklab qo'ymoqda va xorijiy investitsiyalarni sug'urtalashda sug'urta majburiyatlarining bir qismini xalqaro sug'urta bozoriga uzatishiga majbur qilmoqda.

Xorijiy investitsiyalarni o'zlashtirish bog'liq risklar va chet mamlakatlardagi eksportyorlarning iqtisodiy manfaatlarini sug'urta yo'li bilan himoya qilish "O'zbekinvest" eksport import sug'urta kompaniyasi AJ kompaniya faoliyatining asosiy maqsadi sifatida belgilandi.

2020-yilda "O'zbekinvest" eksport-import sug'urta kompaniyasi AJ investitsiyalar va eksport kreditlarini sug'urtalash bo'yicha "Export Credit Etihad Credit Insurance" (BAA) bilan o'zaro hamkorlik memorandumini imzoladi. Bundan tashqari kompaniya "EXIAR" (Rossiya), "NEXI" (Yaponiya), "SINOSURE" (Xitoy), "Ksure" (Koreya), "Export Finance" (Buyuk Britaniya), "COFACE" (Fransiya), "SACE" (Italiya) va boshqalar bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatgan. Shu qatorda turli mamlakatlarning 30 dan ortiq eksport-kredit agentliklari bilan shartnoma va o'zaro anglashuv shartnomalarini tuzdi. Faol xalqaro sug'urta faoliyatini amalga oshirish natijasida O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish Davlat dasturlari doirasida AQSH, Yaponiya, Koreya, Rossiya Federatsiyasi, Shveysariya va boshqa xorijiy mamlakatlar investorlari va pudratchilari tomonidan tuzildi. Bundan tashqari, "O'zbekinvest Interneshnl" kompaniyasi xorijiy investorlarni investitsiyalarini siyosiy risklardan sug'urtalash va chet el investorlariga investitsiyalarni amalga oshirish bo'yicha huquqiy va boshqa ma'lumotlar taqdim qilish yuzasidan maslahatlar berish bo'yicha ko'p tomonlama yordamni amalga oshiradi. Kompaniya savdo shartnomalari, loyihaviy moliyalashtirish, eksport oldi moliyalashtirish va investitsiyalar bo'yicha sug'urta qoplamalarini taqdim etadi.

Mamlakatda xorijiy investorlar uchun ichki investorlardan farqli ravishda zaruriy huquqiy rejim, imtiyoz va preferensiyalar hamda xorijiy investitsiyalarni sug'urta

vositasida himoyalash mexanizmi yaratilgan. Bundan tashqari mamlakatimizda sugʻurta bozori rivojlanishida tuzilmaviy islohotlar oʻtkazilishi, xususan, xorijiy investitsiyalarni sugʻurtalash boʻyicha yangi sugʻurta mahsulotlarining joriy qilinishi, sugʻurta kompaniyalari tomonidan xalqaro reyting agentliklarining reytingini olishlarini ijobiy oʻzgarishlar sifatida eʼtirof etish mumkin. Shuning bilan birga, xorijiy investitsiyalarni sugʻurtalashning nazariy-huquqiy asoslarining takomillashmaganligi, sugʻurta kompaniyalari kapitallashuvining pastligi, investitsiya risklarini baholash uslubiyotidagi muammolar, bu borada malakali mutaxassislar yetishmasligi, investitsiya loyihalarini kompleks sugʻurtalash mexanizmlarini yetarli rivojlanmaganligi, investitsiya nizolarini bartaraf etishda mustaqil va odil sudlovdagi muammolar hamda ichki qayta sugʻurtalashning rivojlanmaganligi xorijiy investitsiyalarni sugʻurtalashda sugʻurta bozorining asosiy kuchsiz tomonlarini tashkil qilmoqda.

Bu kabi koʻplab muammolar sugʻurta bozorining mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushiga ham salbiy taʼsir koʻrsatmoqda (1-jadval).

### 1-jadval

#### Sugʻurta mukofotlarining YIMdagi salmogʻi<sup>1</sup>

№	Koʻrsatkichlar	Yillar				
		2017	2018	2019	2020	2021
1.	YIM, (mlrd.soʻm)	302536,8	406 648,5	510117,2	580 203,2	734587,7
2.	Sugʻurta mukofotlari, (mlrd.soʻm)	927,4	1 635,2	2313,9	2213,7	3732,8
3.	YIMda sugʻurta mukofotlarining salmogʻi, (%)	0,31	0,40	0,45	0,38	0,51

Bu boradagi koʻrsatkichlar Gʻarbiy Yevropa mamlakatlarida 8,4 foizni, Sharqiy Osiyoda 6,2 foizni tashkil etgan bir sharoitda mamlakatimizda bor yoʻgʻi 0,5 foizdan iborat.

Shu oʻrinda, mamlakatimiz iqtisodiyotiga jalb qilinayotgan investitsiyalar haqida toʻxtalib oʻtsak.

<sup>1</sup>Oʻzbekiston Respublikasi Davlat statistika qoʻmitasi va Moliya vazirligi maʼlumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

## 2-jadval

### O'zbekiston iqtisodiyotiga jalb etilayotgan investitsiyalar<sup>1</sup>

Ko'rsatkichlar	Yillar				
	2018	2019	2020	2021	2022
Yalpi ichki mahsulot, mlrd.so'm	407 514,5	511 838,1	580 200,0	734 587,7	888 300,0
Asosiy kapitalga investitsiya, mlrd.so'm	124 695,0	189 900,0	202 000,1	245 000	269 900,0
Xorijiy investitsiyalar, mlrd.so'm	20 613,8	85 377,2	86 647,0	104 457,3	112 200,0
<b>Shu jumladan:</b>					
Davlat kafolati ostida xorijiy investitsiya va kreditlar, mlrd.so'm	6 573,8	27 873,2	22 467,1	17 318,3	15 200,0
To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar, mlrd.so'm	14 040,0	57 564,0	64 179,9	87 139	97 000,0

Yuqorida keltirilgan 2-jadval ma'lumotlaridan ham ko'rinib turibdiki, jami jalb qilinayotgan xorijiy investitsiyalarda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar miqdori ortib borganligini ko'rishimiz mumkin. Masalan, 2018-yilda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar jami xorijiy investitsiyalarning 68,1 foizini tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda ushbu ko'rsatkich 86 foizni tashkil etmoqda. Xorijiy investitsiyalarning asosiy kapitalga qilingan investitsiyadagi ulushi 2018-yilda 16,5 foizni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2022-yilda 41,6 foizni tashkil etgan.

Respublikamizda xorijiy investitsiyalarni sug'urtalash borasida amaliy ishlar olib borilayotgan bo'lsa-da, o'z yechimini kutayotgan quyidagi muammolar ham mavjud:

- mamlakatda sug'urta bozorining yetarlicha rivojlanmaganligi, sug'urta kompaniyalari kapitallashuvi darajasining pastligi, milliy sug'urta kompaniyalarining xalqaro reyting ko'rsatkichlarini qo'lga kiritishi;

- mamlakatimizda xorijiy investitsiyalarni sug'urtalashning ilmiy-nazariy asoslarining yetarli darajada o'rganilmaganligi, sug'urta kompaniyalarida investitsiya

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi va Moliya vazirligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

risklarini baholash uslubiyotining ishlab chiqilmaganligi va shu sohada malakali, xalqaro doirada faoliyat olib boruvchi milliy mutaxassislarning yetishmasligi;

– investitsiyalarni, xususan, xorijiy investitsiyalarni sugʻurtalash sohasida yaxlit statistik maʼlumotlar bazasining shakllanmaganligi, milliy sugʻurta bozorining umumiy ahvoli toʻgʻrisida axborot-tahliliy maʼlumotlarni olishning murakkabligi - bu, oʻz navbatida, xorijiy investorlarga shaffof, ochiq maʼlumotlar bazasini taqdim qilishni qiyinlashtiradi;

– Oʻzbekistonda investitsiyaga oid nizolarni hal qilishning huquqiy mexanizmini toʻla taʼminlanmaganligi- ushbu muammoning yechimi sugʻurta daʼvolarini koʻrib chiqish jarayonlarini tartibga solishda, sugʻurta hodisasini adolatli baholash va toʻlovlarni tezkor toʻlash mexanizmlarini joriy qilishda, aholi va tadbirkorlarning hamda xorijiy investorlarning sugʻurtaga ishonchini oshirishda muhim omil boʻlib xizmat qilishi mumkin.

Ushbu muammolarning yechimi sifatida quyidagilarni keltirishimiz mumkin:

– Oʻzbekiston iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish samaradorligini oshirishda hududiy hokimiyatlar mustaqilligini taʼminlash zarurligi, agar barcha iqtisodiy dastaklar iqtisodiy, geografik xususiyatlarni hisobga olib, viloyat hokimliklariga va qisman tumanlarga oʻtkazilsa, bu yanada samaraliroq boʻlishi mumkin;

– yuqori qiymatli xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi loyihalarni sugʻurta kompaniyalari tomonidan birgalikda sugʻurta qilish, innovatsion sugʻurta turlarini joriy qilish, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi loyihalarni sugʻurtalashda sugʻurta faoliyati klassifikatorining tegishli klasslari doirasida oʻzaro bogʻliqlikda kompleks sugʻurtalash tartibini joriy qilish, sugʻurta sektorini raqamli texnologiyali tizimga oʻtkazish ;

– mamlakat investitsiya muhitini yanada yaxshilash, ichki investitsion jozibadorlikni belgilovchi koʻrsatkichlar darajasini oshirish;

– mamlakatning davlatlar bilan investitsiyalarni oʻzaro himoya qilish va ragʻbatlantirish sohasida ikki tomonlama bitimlarni tuzish, xorijiy investorlar uchun yaratilgan huquqiy rejimni yaxshilash, xorijiy investitsiyalarni sugʻurta vositasida himoyalashga oid qonunchilikni takomillashtirish.

## **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, investitsiyalarning yuqori darajadagi daromadlilikni ularni amalga oshirishdagi mavjud risklar va qiyinchiliklarni bartaraf etmaslikdan ozod qilmaydi. Milliy lashtirish va ommaviylashtirish bilan bogʻliq risklar eng jiddiy risklar sirasiga kirsada, Gʻarb investorlarining taʼkidlashicha investitsiyalarni amalga oshirish qaroriga qatʼiy taʼsir koʻrsatadigan omillar sifatida barcha sohalarda yuqori darajadagi korrupsiya va iqtisodiyotning byurokratlashganligi, xorijiy investorlar faoliyatiga

jiddiy zarar yetkazilishiga sabab bo'luvchi siyosiy qarorlar qabul qilinishiga va nosog'lom raqobat muhitini keltirib chiqaruvchi omil sifatida qonunchilikning takomillashmaganligini misol keltirish mumkin.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1. Voljanin.D.A. Razvitie straxovaniya kak instrumenta upravleniya investitsionnimi riskami. Dis.kand.ekon.nauk. M.,2005.
2. O'zbekistonda xorijiy investitsiyalarni sug'urtalashni takomillashtirish. Monografiya/S.M.Xoshimov.- T.: "Lesson Press" MChJ nashriyoti, 2023. -165 b.
3. Valiev.B. Xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy o'sishni ta'minlashdagi roli. // "Moliya". Jurnal. 2014. 6-soni. –B.106-109.
4. Khoshimov S.M. Foreign investment insurance in the global economy. Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR) Vol 10, Issue 8, August, 2021.- Pp.276-281. (08.00.00; №23: SJIF 2021 = 7.699)
5. <https://www.imv.uz>
6. <https://www.uzbekinvest.uz>
7. <https://www.stat.uz>
8. <https://www.spot.uz>